

HUQUQIY HUJJATLAR TILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ilxomjon Zokirov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Email: ilkhomjon0608@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-7547-4122>

Ilmiy rahbar: Parvina Muxtamova

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy lingvistika zamonaviy ilmiy yo'nalish sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy lingvistikaning nazariy asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda huquqiy hujjatlar tilining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarda huquqiy lingvistikaning rivojlanish tajribasi o'rganilib, O'zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlar tilida uchraydigan muammolar tahlil qilingan. Qonun hujjatlarida uchraydigan murakkab sintaktik tuzilmalar, noaniq iboralar va terminologik nomuvofiqliklar huquqni amalda qo'llash jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida huquqiy tilni takomillashtirish, lingvistik ekspertiza tizimini joriy etish hamda qonun hujjatlarini tilini soddalashtirish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot huquqiy davlat qurilishi jarayonida qonun hujjatlarining sifatini oshirish va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy lingvistika, huquqiy til, normativ-huquqiy hujjatlar, lingvistik ekspertiza, qonun tili, terminologiya, huquqiy matn.

Abstract: This article analyzes legal linguistics as a modern scientific field. The study examines the theoretical foundations of legal linguistics, its stages of formation, and the specific linguistic features of legal documents. In addition, the development of legal linguistics in foreign countries is reviewed, and the linguistic problems found in normative legal documents in Uzbekistan are analyzed. The study scientifically explains how complex syntactic structures, ambiguous expressions, and terminological inconsistencies in legal documents influence the practical application of law. As a result of the research, several practical recommendations have been developed for improving legal language, introducing a system of linguistic expertise, and simplifying the language of legal documents. This research contributes to improving the quality of legal documents and enhancing citizens' legal awareness in the process of building a rule-of-law state.

Keywords: legal linguistics, legal language, normative legal documents, linguistic expertise, language of law, terminology, legal text.

Аннотация: В данной статье юридическая лингвистика рассматривается как современное научное направление. В исследовании освещаются теоретические основы юридической лингвистики, этапы её формирования, а также особенности языка юридических документов. Кроме того, изучается опыт развития юридической лингвистики в зарубежных странах и анализируются языковые проблемы, встречающиеся в нормативно-правовых документах Узбекистана. Научно обосновывается влияние сложных синтаксических конструкций, неоднозначных выражений и терминологических несоответствий на практическое применение права. По результатам исследования разработан ряд практических рекомендаций по совершенствованию юридического языка,

внедрению системы лингвистической экспертизы и упрощению языка правовых документов. Данное исследование способствует повышению качества нормативно-правовых актов и развитию правового сознания граждан в процессе построения правового государства.

Ключевые слова: юридическая лингвистика, юридический язык, нормативно-правовые документы, лингвистическая экспертиза, язык права, терминология, юридический текст.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquqiy davlat qurish va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023). Ushbu islohotlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda huquqiy ongni oshirishga qaratilgan. Shu jarayonda normativ-huquqiy hujjatlarning sifati, aniqligi va tushunarliqligiga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki qonunlar faqat aniq va ravshan bo'lgandagina fuqarolar tomonidan to'g'ri tushuniladi va amaliy hayotda samarali qo'llaniladi ("Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun, 2022; Mellinkoff, 1963).

Shu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy lingvistika huquq va tilshunoslik fanlari kesishgan muhim ilmiy yo'nalish sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (Tiersma, 1999; Solan & Tiersma, 2012). Ushbu soha huquqiy matnlarning tuzilishi, leksik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, ma'no ifodalanish mexanizmlarini o'rganadi. Uning asosiy vazifasi huquqiy hujjatlarning aniq, bir ma'noli va izchil bo'lishini ta'minlash hamda turli xil talqinlarning oldini olishdan iboratdir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi huquqiy lingvistikaning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, uning ilmiy konsepsiyalarini tahlil qilish hamda O'zbekistondagi huquqiy matnlarda uchraydigan lingvistik muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilishdan iboratdir. Bu orqali huquqiy hujjatlar tilini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda huquqiy lingvistikani har tomonlama o'rganish maqsadida bir nechta ilmiy yondashuvlardan kompleks ravishda foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv hamda mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish (literature review) usullari asosiy metod sifatida tanlab olindi. Mazkur yondashuvlar orqali huquqiy lingvistika sohasiga oid asosiy ilmiy qarashlar, konseptual yondashuvlar va nazariy asoslar chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, o'rganilgan nazariy materiallar amaliy misollar bilan boyitilib, mavzuning mazmuni yanada aniq va tushunarli tarzda yoritib berildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar — AQSH, Germaniya va Rossiya huquqiy tizimlari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu qiyosiy yondashuv huquqiy lingvistikaning turli huquqiy tizimlarda shakllanish jarayoni, uning amaliy qo'llanilishi hamda rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq anglash imkonini berdi. Xususan, AQSH va Germaniya tajribasida lingvistik ekspertiza va huquqiy matnlarni tahlil qilish amaliyoti ancha rivojlanganligi, Rossiyada esa sud nutqi va huquqiy diskurs tahliliga e'tibor kuchayayotgani aniqlandi (Mellinkoff, 1963; Tiersma, 1999; Solan & Tiersma, 2012).

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, Konstitutsiya matni hamda boshqa rasmiy hujjatlar lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Ushbu tahlil jarayonida ularning til xususiyatlari, jumla tuzilishi, terminologik tizimi hamda ifoda uslubi o'rganildi. Natijada huquqiy matnlarda uchraydigan murakkab sintaktik tuzilmalar, noaniq iboralar va terminologik nomuvofiqlik kabi muammolarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy lingvistika huquqiy matnlarning aniqligi, izchilligi va tushunarligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Aniq va bir ma'noli til huquqiy hujjatlarning to'g'ri talqin qilinishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi bu sohaning amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, AQSHda sud jarayonlarida lingvistik ekspertiza keng qo'llaniladi (Tiersma, 1999). Germaniyada esa qonun loyihalari qabul qilinishdan oldin lingvistik tahlildan o'tkazilib, ularning aniqligi va izchilligi tekshiriladi (Solan & Tiersma, 2012). Rossiyada ham sud nutqi va huquqiy matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish amaliyoti rivojlanib bormoqda.

O'zbekistondagi mavjud holat tahlili esa ayrim muammolarni ko'rsatdi. Jumladan, huquqiy matnlarda murakkab va uzun jumlar, noaniq iboralar, terminologik nomuvofiqlik hamda boshqa tillardan tarjima qilingan sintaktik tuzilmalar uchrab turadi (Mellinkoff, 1963). Bu holatlar huquqiy matnlarni tushunishni qiyinlashtirishi va turlicha talqinlarga sabab bo'lishi mumkin.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy lingvistika zamonaviy huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismidir. U huquqiy hujjatlar sifatini oshirish, ularning aniq va bir ma'noda talqin qilinishini ta'minlash hamda turli xil noto'g'ri tushunishlarning oldini olishga xizmat qiladi (Tiersma, 1999).

O'zbekistonda ushbu sohani yanada rivojlantirish huquqiy tizim samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bir qator yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur. Avvalo, qonun hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida lingvistik ekspertiza tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Bu hujjatlarning til jihatdan aniqligi va izchilligini ta'minlashga yordam beradi.

Shuningdek, huquqiy terminologiyani standartlashtirish zarur bo'lib, bu turli hujjatlar o'rtasida bir xillikni ta'minlaydi va tushunmovchiliklarni kamaytiradi.

Yana bir muhim jihat - yuridik ta'lim tizimida "huquqiy lingvistika" fanini rivojlantirish, bu kelajakdagi mutaxassislarining huquqiy matnlar bilan ishlash madaniyatini oshiradi.

Bundan tashqari, tilshunoslar va yuristlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa (Solan & Tiersma, 2012).

XULOSA

Huquqiy lingvistika zamonaviy huquqiy tizimning ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, u qonun hujjatlarining aniqligi, tushunarligi va bir ma'noda talqin qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Huquqiy matnlarning til jihatdan to'g'ri va ravshan bo'lishi fuqarolarning qonunlarni to'g'ri anglashiga hamda ularni amaliyotda samarali qo'llashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ushbu soha hali shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, uning ilmiy va amaliy istiqbollari juda kengdir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan

huquqiy islohotlar jarayonida huquqiy matnlarning sifati va til madaniyatiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, lingvistik ekspertiza tizimini joriy etish, huquqiy terminologiyani standartlashtirish hamda qonun hujjatlarini soddalashtirish muhim vazifalar hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlar huquqiy hujjatlarning aniqligini oshirish, turli xil talqinlarning oldini olish va huquqiy tizim samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Natijada, huquqiy lingvistikaning rivojlanishi fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va adolatli huquqiy muhitni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023.
2. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun. Toshkent, 2022.
3. Mellinkoff D. *The Language of the Law*. Boston, 1963.
4. Tiersma P. *Legal Language*. Chicago, 1999.
5. Solan L., Tiersma P. *The Oxford Handbook of Language and Law*. Oxford, 2012.